

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSITUTSIYASI - ISLOHOTLARNING MUHIM POYDEVORI

Shahrizoda Akramova

Toshkent davlat yuridik univeristeti talabasi

@shahrizodaakramovagmail.com

Annontatsiya : *Ushbu maqolada yangi qabul qilingan konsitutsiyaning mohiyati va taraqqiyot uchun ahamiyati , jamiyat farovonligi uchun tutgan ro'li hamda afzallikkari , qolaversa , rivojlangan davlatlarning qonunchiligidagi implementatsiya qilinishi lozim bo'lgan jihatlar bayon etiladi . Bundan tashqari yangi qabul qilingan konsitutsiyaning normalari hamda formati tahlil etiladi .*

Abstract : *The article describe the essence and importance of the newly adopted constitution for development , its role and advantages for the well-being of the society , as well as the aspects that should be implemented in the legislation of developed countries . In addition , the norms and format of the newly adopted constitution are analysed .*

Аннотация : *В данной статье описываются сущность и значение вновь принятой конституции для развития ее роль и преимущества для благосостояния общества а также аспекты которые должны быть имплементированы в законодательство развитых стран , кроме того б анализируются нормы и формат вновь принятой конституции .*

Kalit so'zlar : *konstitutsiya , inson huquqlari , referendum , ijtimoiy axloq , qonun , fuqoro , sud , mitinglar , davlat organi , jamoatchilik nazorati .*

2023 yil 30-aprel davlatimiz tarixiga muhim sanalardan biri sifatida muhrlandi . Sababi , ushbu sanada umumxalq referdumi orqali yangi tahrirdagi bosh qomusimiz qabul qilindi hamda 1 may sanasidan kuch kirdi . Chindan ham Konsitutsiyada yangi normalar va kiritilgan tegishli o'zgartirish hamda qo'shimchalar mamlakatimiz taraqqiyoti uchun muhim omillardan biri bo'ldi desak yanglishmaymiz . Chunonchi , birgina o'zgarish misolida aytadigan bo'lsak , endilikda konstitutsiyaning 91 va 93-moddalari asosida , xalqning bevosita vakillari hisoblangan Oliy Majlisimiz vakolatlari kengaytirildi . Bundan tashqari ta'llim sohasiga muhim e'tibor qaratilib , uning poydevorini bunyod etuvchi o'qituvchilar uchun kafolatlar belgilanib 52-modda bilan mustahkamlandi . Ayniqsa , bosh qomusimizga Advokatura faoliyatini tartibga solishga qaratilgan alohida bob qo'shilgani , nafaqat yuridik soha vakillari uchun balki inson huquqlari ta'minlanishi



uchun ham juda muhim qadamlardan bo'ldi . Advokatura bobining aynan Sudga bag'ishlangan 23 bob dan keyin , prokuratura faoliyati bilan bog'liq bo'lgan 25 bobdan oldin o'rinni olganida esa , albatta , majoziy ma'no bor .

Fuqorolar tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalar asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya eng avvalo inson huquqlari va ularning kafolatlarini yanada mustahladi desak xato qilmaymiz . Binobarin , barcha noaniqliklar inson foydasiga hal etiladigan bo'ldi . Ijtimoiy munosabatlar cheksiz shakllariga ega ekanligini inobatga olsak , ularning normativ-huquqiy hujjatlarda to'liq kodifikatsiya qilish amalda imkonsizdir . Endilikda , qonunchilikda aniq belgilab qo'yilmagan masalalarda ziddiyat yuzaga kelsa , masala davlatning emas inson foydasiga hal etilishi aniq qilib belgilandi . Bundan tashqari , turli hujjatlarni yuritishda davlat organlari tomonidan xato va kamchiliklar o'tgan taqdirda , vaziyat fuqoroga foydasiga hal etiladi , misol tariqasida keltirish mumkinki , pensiya tayinlashda tegishli hujjatlar umumiy ma'lumotlar bazasidan topilmay qolgan taqdirda , uni tasdiqlovchi birgina rasmiy hujjat kifoya qiladi . Bundan tashqari , yangi tahrirdagi konstitutsiyamizda quyidagi ikkita norma saqlab qolindi hamda tegishlicha qo'shimchalar kiritildi , ya'ni insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni , aholining sog'ligini , ijtimoiy axloqni , boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish , jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash maqsadida zarur bo'lgan doirada cheklanishi mumkin . Yana ham oddiyroq tushuntirganda , fuqorolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning , davlat , jamiyatning qonuniy manfaatlarini , huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasligi shart .

Bu borada , huquqlar cheklanishiga doir me'yorlar , yangi tahrirdagi konstitutsiyamizga ko'ra soz' erkinligi ga ham tegishli hisoblanib , axborot izlash , olish , tarqatish huquqi faqat konstitutsiyaviy tuzumni , aholi sog'ligini , ijtimoiy axloq va boshqa shaxslarning huquqlarini ta'minlash sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirlarni oshkor etilishiga yo'l qo'yilmaslik maqsadida cheklanishi mumkin .

Aytib o'tish joizki , ijtimoiy axloq tushunchasi milliy qonunchiligidan hali aynan o'z aksini topmagan . Mazkur tushuncha , inson huquqlari jamoat tartibini ta'minlash maqsadida cheklanishi bo'yicha vakolatli organning huquqiy sharhiga zarurat bor deb hisoblaymiz . Huquqlar ta'minlanishi hamda ijtimoiy axloq o'rtasida oltin aniq belgilanib qo'yilishi kerak . Shu bilan birga , yuqoridaq aytganimizdek , konsitutsiyaga binoan endilikda barcha noaniqliklar inson foydasiga hal etilishi lozim .





Xulosa o'rnida , 2023 yil 9-iyul kungi bo'lib o'tgan saylovlarda eng ko'p ovoz to'plagan holda , prezidentlikka qayta saylangan Shavkat Mirziyoyev ning Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqida keltirgan quyidagi so'zlarni ilova qilmoqchiman : “ Xalq davlat organlariga emas , davlat organlari xalqning manfaatlari yo'lida xizmat qilishi lozim ” .

Chindan ham rahbarlar davlat manfaatlarini emas , avvalo jamiyatning manfaatlarini ko'zlab harakat qilsa va ularni ta'minlasa davlatimiz demokraiyaning cho'qqisi hisoblangan fuqorolik jamiyatiga albatta erishadi . Bunda esa qabul qilingan Konstitutsiyamizning o'rni ulkandir .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir)
O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (eski tahrir)
Konstitutsiyaviy huquq darslik . Husanov
Ommaviy axborot vositalari .

